



XX ASRNING 20-30-YILLARIDA SOVET HOKIMIYATINING DIN VA UNING VAKILLARIGA NISBATAN YURITGAN SIYOSATI

Tashxodjayev M.V.

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada 1920 – 1930 - yillardagi sovet hokimiyatining Sobiq Ittifoqda, jumladan O‘zbekistonda ham din va dindorlarga qarshi olib borgan dahriylik siyosati, dinga qarshi targ‘ibot va tashviqotlarning kuchaytirilishi, diniy idoralar va diniy ulamolarga nisbatan yuritgan siyosati haqidagi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ateist, masjid, “kurashchan xudosizlar”, “Bezbojnik”, musulmon emigrantlar, kollektivlashtirish, panislom, panturkiy, antisovet, ”Katta terror”, razvedka, josuslik, qo‘poruvchilik.

Аннотация: В статье освещаются вопросы политики атеизма, проводимой советской властью в отношении религии и верующих в бывшем Союзе, в том числе в Узбекистане в 1920-е-1930-е годы, усиления антирелигиозной пропаганды и агитации, политики в отношении религиозных учреждений и религиозного духовенства.

Ключевые слова: атеист, мечеть, “воинствующие безбожники”, “бездожник”, мусульманские эмигранты, коллективизация, панисламизм, пантюркизм, антисоветизм, ”Большой террор”, разведка, шпионаж, диверсионная деятельность.

Annotation: The article highlights the issues of the policy of atheism pursued by the Soviet government in relation to religion and believers in the former Soviet Union, including in Uzbekistan in the 1920s-1930s, the strengthening of anti-religious propaganda and agitation, policy towards religious institutions and religious clergy.

Keywords: atheist, mosque, “fighting godless”, “Bezbojnik”, Muslim emigrants, collectivization, panislom, panturky, anti-Soviet, “big terror”, intelligence, espionage, sabotage.

Sovet jamiyati tarixida XX asrning 20- yillari oxiri 30- yillaridagi siyosat diniy muassasa va tashkilotlar hamda din peshvolari, dindorlarga nisbatan o‘ta reaksiyon, shafqatsiz tarzda bo‘lgani, atteistik harakatning keng miqyosda kuchaygani bilan ta’riflanadi. Shu davrda maydonga kelgan Butunittifoq xudosizlar uyushmasi o‘zining tashviqot va targ‘ibotchilik ishini olib borar ekan, ishchi va dehqon ommasi o‘rtasida qishloqlarda muqaddas joylarning “soxtaligi” va “asossizligi”ni isbotlashga urinish, dindorlarni burjuaziya va mayda burjuaziya tarafдорлари sifatida qoralash, sotsializmga dushmanlikda ayplash, muqaddas avliyolar mozorlariga borib ziyorat qlish mumkin emasligini uqtirish, diniy marosimlarning zararli ekanligini keng targ‘ib qilish sovet matbuot organlarida chop etilgan maqolalar orqali keng ommaga targ‘ib va tashviq qilindi.

Sobiq Ittifoqda 1925-yil yanvarda tashkil etilgan Butunittifoq xudosizlar uyushmasi sovet hokimiyatining dinga qarshi targ‘ibot va tashviqot organi hisoblanib, diniy muassasa va tashkilotar faoliyatiga qarshi dahriylik siyosatining bosh tashkilotchisi bo‘lgan edi. 1929- yil 10 – 11 iyun kunlari SSSRning poytaxti Moskvada bo‘lib o‘tgan Butunittifoq xudosizlar uyushmasining II-s’ezdi Markaz va uning Ittifoqdagi barcha respublikalarda uyushmaning bo‘limlarini tashkil qilish va uni “kurashchan xudosizlar” deb nomlashga qaror qilgandi[1. 63].

Ushbu tashkilot XX asrning 20-yillari oxiri va 30-yillar boshlarida Markazning daxriylik siyosatining assosiy fikr tarqatuvchisi bo‘ldi. Butunittifoq xudosizlar uyushmasi XX asrning 20-yillari oxirlariga kelib o‘zining dinga qarshi tashviqot olib boruvchi 14 ta tilda, 18 ta nomdagilashlariga ega bo‘ldi. “Xudosizlar uyushmasi”ning haftalik gazetasi “Bezbojnik” (“Xudosiz”), shuningdek,



“Antirelegioznik”, “Derevenskiy bezbojnik” (“Qishloqlik xudosiz”), “Yuniy bezbojnik” (“Yosh xudosizlar”) singari markaziy jurnallari ham chop ettirildi. “Kurashchan ateizm” jurnali ham o‘zicha dinni “fosh etish” matbuot markazaridan biriga aylandi[2.20].

Yuqorida qayd etilgan dinga qarshi bo‘lgan markaziy dahriylik jurnallaridan tashqari bir qator ittifoqdosh respublikalarda boshqa millatlarning mahalliy tillarida ham gazeta va jurnallar chop etilgan, hamda dinga qarshi tashviqot yurituvchi maxsus byulletenlar ham chiqarilgandi. Jumladan, Ukraina SSRda ukrain tilida “Bezverniki” (“Dinsiz”) bir xil nomdag‘i gazeta va jurnallar, tatar tilida esa “Sgushchan allasizlar” (“Kurashchan xudosizlar”), yahudiy tilida “Anikuyres” (“Xudosiz”), arman tilida “Anastvas” (“Xudosiz”) kabi jurnallar har oyda bir marta, bir yil davomida esa 12 ta soni muntazam nashrdan chiqib turgandi[3.172].

Bu davrda qizil armiya jangchilari hamda zabitlari orasida ham xudosizlikka da’vat etuvchi tashviqot, targ‘ibot ishlari muntazam olib borilib, 1929-yil qizil armiya harbiy texnikalardan “Xudosizlar samolyoti”, 1931-yil iyundan esa “Kurashchan xudosiz” tanki, Baltika flotida esa “Kurashchan xudosiz” suv osti kemasi, bundan tashqari “Ukrainalik xudosiz”, “Guruziyalik xudosiz”, “Birobidjon xudosizlari” nomidagi samolyotlar, “Urallik xudosiz” tank kolonnasi mavjud bo‘lib, ular asosan armiyada dinga qarshi dahriyona kurash olib borish ramzlariga aylantirilgandi[4.59].

SSSRda 1929-yildan barcha din vakillari va diniy muassasalariga qarshi, xususan islom diniy muassasalariga ham qarshi bosim va targ‘ibotlar yanada kuchaydi. Bu vaqtga kelib “bosmachilik harakati” (aslida milliy ozodlik harakati) asosan “yakson” etilgan edi. 1930- yillarning oxirlariga borib, musulmon dindorlar va ulamolari vakillariga yon berishni o‘zida ifodalagan tashqi siyosatga ham “ehtiyoj” qolmadi. Sovet musulmonlari qonuniy ravishda chet elga emigratsiyani amalga oshirish imkoniyatidan ham deyarli mahrum bo‘ldilar. SSSR hukumati 1930- yillar boshlaridan o‘z fuqarolariga chet elga chiqish uchun chegaralarini to‘liq yopib qo‘ydi. 1932- yilda sovet hukumati chet elga chiqish tartibi to‘g‘risida qaror qabul qildi. Qarorga ko‘ra chet elga chiqmoqchi bo‘lgan har bir sovet fuqarosi (agar u “mehnat unsuri” bo‘lsa) uchun uning chet elagi qarindoshlari “Torgsin” (Chet elliklar bilan savdo qilish bo‘yicha Butunittoq birlashmasi)ga 500 oltin rubl miqdorida valyuta o‘tkazmasini amalga oshirishi lozim bo‘lgan[5.319].

SSSR Jidda shahridagi o‘zining konsullik idorasini 1938- yilda yopib qo‘yib, deyarli Saudiya Arabistoni bilan aloqalarini to‘xtatdi. Bundan tashqari, SSSR musulmonlari bilan qo‘shni mamlakatlar musulmonlari o‘rtasidagi aloqalarni qisqartirishga hamda SSSRga keluvchi xorijiy musulmonlar sonini cheklashga qaratilgan qator choralar ko‘rildi. Aslida sovet musulmonlari bilan xorijiy davlatlar musulmonlari o‘rtasidagi o‘scha davrlardagi aloqa va munosabatlarning keng ravishda olib borilishiga 1920-1930- yillardagi SSSRdagi mavsumiy ishlarga unga qo‘shni musulmon mamlakatlardan ko‘plab musulmon ishchilarini yollash tajribasi sabab bo‘lgan edi. Bu ishchilar asosan SSSRning musulmon aholisi istiqomat qiladigan chegara oldi hududlarida mehnat qilganlar.

1930- yilda SSSRda 10 mingdan 20 minggacha afg‘onlar, forslar va boshqa O‘rta Osiyo xalqlarining xorijiy vakillari mavsumiy ishlarni amalga oshirganlar. Bu mavsumiy ishchilar Ozarbayjondagi, xususan Bokudagi neft qazib olish tarmoqlarida hamda O‘rta Osiyodagi paxta yig‘imterimi bilan bog‘liq ishlarni bajarganlar[6.121].

1930-yillarning oxiriga borib xorijiy musulmonlar sovet hokimiyati uchun “jiddiy xavf” sifatida qabul qilindi. 1938-yilning boshida SSSRning Eron, Afg‘oniston va Turkiyadagi konsullik idoralari ham yopildi[7.300].

1930-yillarning boshlaridayoq SSSRga chegaradosh hududlarda mamlakatdan chiqib ketgan sovet musulmon emigrantlarining kichikroq yashash joylari tashkil topib ulgurgan edi. Bu sovet musulmon emigrantlari SSSRning maxsus xizmatlari tomonidan sovetlarga qarshi faoliyatda, hattoki SSSRda panislom qo‘zg‘olonlarini tayyorlashda ayblanganlar.



1944-yildagi axborot-analitik taxlillarga ko'ra, 1930-yillar boshlarida Afg'onistonning shimoliy hududlarida 4 milliondan ortiq SSSRdan chiqib ketgan musulmon emigrantlari istiqomat qilganligi ta'kidlanadi. Hozirgi zamon tadqiqotchilari esa ancha kamtarroq raqamlarni, ya'ni, Xitoyning Shinjon hududi va Afg'onistonga qochib o'tgan sobiq sovet musulmonlari yarim milliondan bir milliongacha bo'lganligi haqidagi raqamlarni keltiradi[8.108]. Bu emigratsiyaning kata qismi SSSRda 1930-yillar boshlarida olib borilgan ommaviy qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish (qishloq xo'jaligini ommaviy jamoalashtirish) siyosati natijasida yuzaga kelgan edi. Xorijga ko'chib borgan sovet musulmon emigrantlari o'z jamoat birlashmalariga ham asos solgan edilar.

1929-1941- yillar SSSRda musulmon ulamolari vakillarini va dindorlarni ta'qib etish yalpi tus olgan davr bo'ldi. Turli zo'ravonliklar (uydirma jinoiy ishlar bilan ruhoniyat vakillarini otib tashlash, qulq qilish) iqtisodiy bosim (nomutanosib soliqlar va alohida turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlarini davlatga topshirish kabi amalga oshirib bo'lmas vazifalar) bilan, hamda diniy ta'lim va diniy adabiyotlarni yo'q qilishga qaratilgan keskin madaniy o'zgartirishlar bilan birga olib borildi. Qulq qilish uchun ruhoniyat vakili bo'lishining o'zi kifoya qilgan edi.

1929-1930- yillarda SSSRda masjidlarni yopishga qaratilgan yalpi kampaniya o'tkazildi. Bu qishloqlarda majburiy tarzda ommaviy jamoa xo'jaliklarini tashkil qilish (kolxozlashtirish) doirasida amalga oshirildi. OGPU (SSSR davlat xavfsizligi xizmatining maxsus organi) ning O'rta Osiyodagi muxtor vakilligining hisobotlarida qayd etilsihicha, O'zbekiston SSR KP(b) byurosining 1929-yil 17 apreldagi "Respublikadagi ateistik tashviqotning borishi" haqidagi qaroriga muvofiq mavjud masjid va madrasalar yoppasiga yopildi, o'rnida kublar va qizil choyxonalar yashkil etish kampaniyasi avj oldi[9.9].

Umuman 1929 -1941- yillarda SSSR hududidagi deyarli barcha masjidlar yopib qo'yildi. Ko'plari esa buzib tashlandi. Su bilan birga, sovet madaniyat organlari xodimlari tarixiy va madaniy qimmatga ega diniy yodgorliklarni sog'-omon saqlab qolishga harakat qildilar. Ammo bu harakat imkon qadar ko'pgina qurilish materiallariga ega bo'lishni ko'zlagan mahalliy hokimiyat vakillari qarshiligiga uchradi.

Musulmon ulamolari vakillariga nisbatan amalga oshirilgan qataq'onlik va masjidlarning ommaviy ravishda yopilishi bilan olib borilgan kollektivlashtirish SSSRning musulmonlar ko'plab istiqomat qiladigan hududlarida bir qancha qo'zg'olnlarga sabab bo'ldi. Albatta bunday qo'zg'olnlarni bostirish uchun sovet hukumati o'zining harbiy kuchidan foydalandi. Ommaviy kollektivlashtirish davrida islom shiorlari ostida O'rta Osiyo va Qozog'istonda ham qo'zg'olnlar bo'lib o'tdi. 1930-yil fevralda bir guruh qo'zg'olnchilar So'zoqni egallab, Sholaqov Sultonbekni xon deb e'lon qildilar. Ular kommunistlarni oq bayroq ko'targan holda duo o'qib, shu qishloq bo'ylab yurishga majbur qildilar. Biroq tez orada qo'zg'oln bostirilib, xon o'ldirildi[10.189-190].

O'zbekistonda ham 1930-yilgi antisovet harakatida islom omili (OGPU ma'lumotlariga ko'ra) kata rol o'ynadi[11.30]. Zo'ravonlik asosidagi majburiy kollektivlashtirishga qarshi bosh ko'targan mahalliy dehqonlar diniy talablarlarni ham ilgari surdilar. 1930-yil fevralida turli qishloqlardan to'plangan 3,5 mingga yaqin dehqonlardan iborat olomon Qo'qonga yurish qildi. 21- fevral kuni dehqonlar O'zbekiston SSR Xalq Kommisarlari Soveti raisi Fayzulla Xo'jayev va O'zbekiston SSR KP(b)MQ ikkinchi kotibi Alfred Lepa bilan uchrashdilar. Ular ixtiyoriylik asosidagi kolxozi (jamoa xo'jaliklari)larni va erkin savdoni tashkil qilish talabi bilan birga, diniy ta'lim muassasalarini ochish hamda nikohlarni shariat asosida amalga oshirish talablarini ham ilgari surdilar[12.28-29].

O'zbekistonda "kolxozlashtirish"ga qarshi harakat ko'lamni katta bo'ldi. Kollektivlashtirishga qarshi tuzilgan qurolli guruhlarning tarkibida musulmon ulamolari vakillari ham ko'pchilikni tashkil qildi. Masalan, Namangan, Yangiyo'rg'on va Kosonsoy hududlarida harakat qilgan Nosirxon'ta Kamolxon'tayevning qurolli guruhi musulmon ulamolari vakillaridan 33 kishi bo'lgan[13.29].

SSSRda, jumladan O'zbekistonda masjid va diniy ulamo vakillarini yo'q qilishga qaratilgan harakatlar islomga qarshi mafkuraviy usullarni qo'llash bilan uyg'unlashib ketdi. Bu borada amalga oshirilgan "muhim" tadbirlardan biri butun SSSRdagi musulmon xalqlarining arab yozuvini lotin



yozuviga, keyinchalik esa kirill yozuviga almashtirish bo'ldi. 1929- yil 7- avgustda SSSR Xalq Kommisarlari Soveti va Markaziy Ijroiya Komitetining arab yozuviga barham bergan "SSSRdagi arab yozuvidagi xalqlarning lotinlashtirilgan alifbosi haqida"gi qarori qabul qilindi[14.315]. Bunday islohotlar natijasida SSSRning barcha musulmon xalqlari xorijiy islom madaniy markazlari va o'zining bevosita islom qadriyatlar bilan bog'liq bo'lgan ma'naviy meroslaridan to'la uzilib qoldi.

"Katta terror" (1936-1939- yillarda) davrida butun SSSRni musulmon ulamolari vakillariga nisbatan yanada shafqatsizroq qatag'onlik to'lqini qamrab oldi. Ko'pgina musulmon ulamolari vakillari chet el razvedkasi foydasiga joususlik qilishda va antisovet qo'zg'olonlariga tayyorgarlik ko'rishda ayblandilar. Xususan, Yaponiyaning SSSR musulmon hududlarining ajratib olinishi haqidagi rejalariga sheriklikda ochiqchasiga ayblandilar. 1937- yilda "Chet el razvedka organlari va ularning trotskiychi-buxoro agenturasining bir qator metodlari haqida" deb nomlangan maqolalar to'plami nashrdan chiqdi. Unda S.Uranov quyidagilarni ma'lum qilgan edi[15.171-172]: "SSSRning O'rta Osiyo, Ural, Tatariya kabi ichkari hududlarida ommaviy qo'poruvchilik aktlarini uyushtirish maqsadida yapon harbiylari panturkiy va panislom aksilinqilobiy guruhlar hamda "qulq-bosmachi" emigrant markazlari bilan yaqindan aloqa o'rnatgan. Yaqin Sharq va Yevropada emigratsiyadagi aksilinqilobiy musulmon lider(yetakchi)larini yaponlar ochiq ravishda qo'llamoqdalar. Yaponiyada "musulmon yo'nalishi"dagi joususlik va qo'poruvchilik ishlarining tashkilotchisi anchadan buyon yapon razvedkasida xizmat olib borayotgan mulla Kurbangaliyev hisoblanadi".

1937-1938- yillarda Janubiy Qozog'iston va O'zbekiston hududlarida go'yoki musulmon emigratsiyasi va yapon razvedkasiga aloqador bo'lgan "Antisovet panislom terrorchi va jousus-qo'poruvchi tashkiloti" fosh qilindi[16.105]. Oqibatda sovet organlari tomonidan tashkilotning yetakchilari deb topilgan ikki yuqori martabali din vakillari, eshonlar - Yusupxon Umarturayev(o'zbek) va Alken Jangirxo'jayev(qozoq) lar 1937 yilda otib tashlandilar[17.293].

Katta terror davri mobaynida sovet hokimiyati qatag'onlik davomida ruhoniyat vakillarisiz qolgan masjidlarni yana ommaviy tarzda yopa boshladilar. Masjidlarni yopish haqidagi qarorlar maxsus komissiya yig'ilishlarida qabul qilinar edi. Bunda har bir yopilayotgan masjid uchun alohida ish yuritilar edi. 1936-1939- yillarda komissiyalar imkon qadar ko'proq masjidlarni yopishga harakat qilib, ishlarni tez-tez rasman ko'rib qo'ya qolar edilar.

1939-1941-yillarda ham sovet hokimiyatining musulmon ulamolari vakillariga nisbatan qatag'onlik siyosati davom ettirildi. "Panislomchi" va "panturkchi"larga nisbatan "yasama" jinoyat ishlari ham to'xtamadi. Biroq bu davrda Kata terror davriga nisbatan qatag'on qurbanlari kamroq bo'ldi. Chunki, bu davrga kelib musulmon ulamolari vakillarining juda kata qismi qatag'on qilinib bo'lingan edi.

Sovet hukumati o'zining dinga qarshi olib borayotgan shafqatsiz siyosatini hayotiy zaruriyat ekanligini isbotlash maqsadida, davlat va hukumat rahbarlari, ziyorolar va ilmiy jamoatchilikni, kerak bo'lsa butun mehnatkashlar ommasini dahriylik targ'ibotida ishtirok etishga jalb qildi. Ushbu harakatda ishtirok qilmagan kishilarga zo'ravonlik va tazyiq o'tkazish yo'li bilan, ularni obro'-e'tibori hamda egallab turgan lavozimlaridan mahrum qilish bilan qo'rqtib bo'lsa-da ko'r-ko'rona dinga qarshi kurashga majbur qilindi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, sovet hokimiyati va uning jazo idoralari tomonidan XX asrning 20-30- yillari islom dini va dindorlarga, asosan diniy ulamolarga qarshi qat'iy kurash olib borildi. Masjid, madrasa, eski usul maktablari, qiroatxonalar yopildi, diniy ulamolar qatag'on domiga tortildi. Biroq aholining ommaviy noroziliklari tufayli ma'lum davrlarda sovet hukumati biro z yon berishga ham majbur bo'lib, dinga, jumladan islom diniga, masjidlarga borib o'z amallarini bajarishlariga ruxsat ham berdi. Biroq 30-yillarning oxirlariga kelib yana diniy nazorat kuchaytirilib, masjidlar faoliyatini cheklash, ruhoniyat vakillarini ta'qib etish amaliyoti qo'llanildi. Diniy marosimlar hamda bayramlar taqiqlandi. Diniy xizmatchilar, ruhoniyat vakillari, imomlar, eshonlar, saidlar qurolli qarshilik harakatining g'oyaviy rahnamosi, ruhlantiruvchi kuchi, "xalq dushmani", "sinfiy yot unsurlar", "mehnatsiz daromad



topuvchilar” kabi ayblovlar asosida qatag‘on domiga tortildi. Bosqichma-bosqich omilkor, ziyoli qatlamni; obro’li, taniqli yo‘lboshchilarni xalq orasidan sug‘urib tashlash, kompartiya siyosatiga tobe aholi qatlamini shakllantirib borish, qo‘rqitish, terror qilishdan iborat qatag‘on siyosati hukm surdi.

Adabiyotlar:

1. Солмонов А. Ўзбекистонда совет ҳокимиятиниг диний сиёсати: уйдирма ва тарих ҳақиқати (1917 – 1960 йиллар). Тошкент: Тафаккур, 2015.
2. Наука и религия. 1985 №12.
3. Ислом ва аттеизм (саволлар ва жавоблар). – Тошкент: Ўзбекистон, 1987.
4. Наука ирелигия. 1975. №6,, - С.36, 1977. №10.
5. Осокина Е. А. Алхимия советской индустриализации: время Торгсина. — М.: Новое литературное обозрение, 2019.
6. Сорокин А. Пролетарская вербовка // Родина. — 2020. — № 9.
7. Дюллен С. Уплотнение границ. К истории советской политики. 1920—1940-е. — М.: Новое литературное обозрение, 2019.
8. Гусева Ю. Н., Бегасилова Ж. А. Дело о «панисламистской повстанческой организации» в Средней Азии 1940 г. // Российская история. — 2018. — № 2.
9. O‘z. MA. R-71-fond, 1-ro‘uxat, 128-ish, 9-varaq.
10. Киндер Р. Сталинские кочевники. Власть и голод в Казахстане. — М.: РОССПЭН, 2017.
11. Расулов Б. М. Массовое сопротивление дехкан против насильтвенной коллективизации в 1930—1932 годах в Узбекистане // European research. Серия исторические науки. — 2017.
12. Расулов Б. М. Массовое сопротивление дехкан против насильтвенной коллективизации в 1930—1932 годах в Узбекистане // European research. Серия Исторические науки. — 2017.
13. Расулов Б. М. Массовое сопротивление дехкан против насильтвенной коллективизации в 1930—1932 годах в Узбекистане // European research. Серия Исторические науки. — 2017.
14. Казиев С. Ш. Советская национальная политика и проблемы доверия в межэтнических отношениях в Казахстане (1917—1991 годы). Диссертация на соискание учёной степени доктора исторических наук. — М.: Б.и., 2015.
15. Японская военная разведка и мусульманская эмиграция на Дальнем Востоке накануне и в годы Второй мировой войны // Археография Южного Урала. подвиг народов России в Великой Отечественной войне. Материалы V Межрегиональной научно-практической конференции, посвящённой 60-летию Победы в Великой Отечественной войне. — УФА: ЦЭИ УНЦ РАН, 2005.
16. Гусева Ю. Н., Бегасилова Ж. А. Дело о «панисламистской повстанческой организации» в Средней Азии 1940 г. // Российская история. — 2018. — № 2.
17. Бернштейн С. Воспитанные при Сталине. Комсомольцы и защита социализма. — М.: Политическая энциклопедия.
- 18 Arabboy J. IMPROVING THE QUALITY OF TEACHING IN ENGLISH ON THE BASIS OF PROVERBS AND SAYINGS //STUDIES IN ECONOMICS AND EDUCATION IN THE MODERN WORLD. – 2023. – T. 2. – №. 7.
- 19 Raxmuddin o‘g J. A. et al. LINGUISTIC FEATURES OF FLOREMES EXPRESSING HUMAN ACTIVITY ENGLISH AND UZBEK //Conferencea. – 2022. – C. 96-97.
- 20 Raxmuddin o‘g J. A. et al. Linguocognitive and Linguoculturological Characteristics of Winter Sports Terms in Non-Related Languages //Global Scientific Review. – 2022. – T. 10. – C. 112-114.
- 21 Elyorbek A. BUGUNGI KUNDAGI GLOBAL MUAMMOLARNING ASOSIY TIZIMI VA ULARNING IJTIMOIY TA’SIRI //World of Science. – 2023. – T. 6. – №. 4. – C. 321-324.
- 22 Mirzayev R. M. EFFECT OF CHANGING OF MENTALITY TO LANGUAGE //Экономика и социум. – 2023. – №. 5-1 (108). – C. 211-213.



- 23 Мирзаев Р. ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОРГАНИЗАЦИИ УРОКА РУССКОГО ЯЗЫКА ДЛЯ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-1. – С. 1255-1259.
- 24 Dzhurayeva F. PURPOSE OF USING ELECTRONIC EDUCATIONAL LITERATURE IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B11. – С. 312-315.
- 25 Djurayeva F. SCRATCH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB ELEKTRON O ‘QUV ADABIYOTLARINI YARATISH IMKONIYATLARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 5 Part 2. – С. 169-174.
- 26 Dzhurayeva F. USE OF INFORMATION COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. B2. – С. 508-512.
- 27 Ташходжаев М. Иккинчи жаҳон уруши йилларида ўзбекистонда электр станциялари курилиши ва уларнинг фронт газеталарида ёритилиши //Общество и инновации. – 2023. – Т. 4. – №. 9/S. – С. 168-175.